

## MA'NAVY-AXLOQIY MUAMMOLAR TALQINIDA KOMPONENTLAR ISHTIROKI

**Ro'ziboyev Bobur Mirzaqulovich**

*GulDU tadqiqotchisi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 69-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada istiqlol davri hikoyalari misolida ma'naviy-axloqiy qarashlar talqini aks ettirilgan. Hikoyalarda komponentlar ishtirokiga alohida e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ma'naviy-axloqiy muammolar, asar sarlavhasi, portret, peyzaj, interyer, badiiy detall.*

Istiqlol davri hikoyalarda ayol timsoli talqini, uning ruhiyati, hislari masalasi birinchi o'rinda turadi. Ayol ma'naviyati, uning hikoyalardagi aksi yozuvchining individual uslubida, xususan, "tanlangan mazmunni muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatida, o'ziga xos chatishuvida" yaqqol namoyon bo'ladi.

Istiqlol davri ijodkorlaridan biri Ma'suma Ahmedova bo'lib, uning hajman kichik hikoyalarda ham ma'naviy-axloqiy muammolar talqini har tomonlama aks ettirilganligini ko'rish mumkin. Xususan, yozuvchining "Begim kunlar" nomli hikoyasida insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, shukronalik masalalariga murojaat qilgan va kitobxon e'tiborini aynan mana shu masalalarga qarata olgan. Hikoya boshidayoq asarning yetakchi qahramoni bo'lgan Shahodatning keliniga qo'pol muomala qilishidan boshlanadi.

– Oyi, qarasangiz bo'lmaydimi. Bunaqada bor mayizni yeb bitiradi-ku, – juvon ta'naomuz kampirga qaradi.

– Ha, endi men senga sholipoyadagi qo'riqchi bo'ldimmi! – kampir iddao bilan yuzini ters burdi. – Men senga qaynona emas, kelinman, kelin!"

Lekin hikoya davomida qahramonning hayoti juda og'ir kechganligi muallifning uning o'tmishi haqidagi hikoyasidan ma'lumlashib boradi. Xususan, uning uch marotaba turmush qurib, so'nggisidan baxt topganligini eslashi, o'z farzandi bo'lmagach, uchinchi turmush o'rtog'ining yolg'iz o'g'lini boqib, o'stirib, uylantirib, shundan rohat ko'rayotganligi uning hozirgi kuniga shukrona keltirishiga va vaziyatning yumshashiga sabab bo'ladi.

"Kampir ko'zini olib, yiroqlarga tikildi. O'lis tog'lar tiniqlashdi, yaqinlashdi.

– Oyi, ko'ylagingizni yechib bering, kir yuvayapman.

"Ha, qilig'i o'ziga ta'sir qilibdi-da, – kampir yengil tortdi. – Hay, inson bolasi-da, fe'li bor, tili bor..."

Kampir keliniga indamadi. “Darrov rizolik bildirsang, boshga chiqadi”. Kampir qaynona sukutidan sarosimalandi. Soʻzga ogʻiz juftladi-yu, aytolmadi. Kampir kelinning holatini tushundi.

– Hay, Xudoyimga shukur, – kampir xarrakdan qoʻzgʻaldi. Chumchuqlar yana “gurr” etib, peshayvonga yopirildi.

– Hay, ketlaring-a! – kampir ayvon tomon hassasini oʻqtalarkan, zimdan kelin tarafga nazar soldi. Kelin koʻrinmadi” .

Qaynona-kelin munosabati oʻzbek millatida qadriyat darajasiga koʻtarilgan masalalardan boʻlganligi uchun mazkur mavzu badiiy asarlar uchun ham dolzarbligini yoʻqotmaydi. Mazkur hikoyadagi qaynona va kelinning oʻz oʻrnida bir gapdan qolishi va shu orqali bir-biriga yon bosishi vaziyatning yaxshilanishiga xizmat qilganligi qahramonning oʻy-xayollari, oʻtmish haqidagi xotiralari va uning xatti-harakati orqali aks ettirilgan.

Soʻnggi davr ijodkorlarlaridan biri boʻlgan Abbas Said qalamiga mansub “Karomat” hikoyasida ham insonlar oʻrtasidagi salbiy illatlardan boʻlgan baxillik, ichiqoralik, koʻrolmaslik tufayli butun oilaning ahvoli yomonlashganligi, bir insonning taqdiri fojea bilan yakun topganligi xususida soʻz boradi. Hikoyaning bosh qahramoni Karomat ismli qiz boʻlib, uning oilasidagi notinchliklarning, yaʼni dadasining har kuni ichib kelib, uyda janjal koʻtarishi, onasini kaltaklashi qizning oʻz hayotidan zada boʻlib oʻzini suvga tashlamoqchi boʻlishigacha olib keladi. Otasining bu holatga tushib qolishiga sabab boʻlgan mashʼum voqea esa hikoyaning yana bir epizodik qahramoni boʻlgan Kamol ota tomonidan soʻzlab beriladi. Uning aytishicha, Sodir – Karomatning otasining bunday ayanchli holga tushishiga baxil va koʻrolmaydigan insonlar sabab boʻlishgan ekan. Sobir oliy maktabda ishlab yurgan chogʻlarida talabalarni ishga solib, uni aldab choyxonaga olib borib, keyinchalik shuni talabalarga taʼmagirlik qilish maʼnosida ustidan yozib, ishdan haydatishganligi xususida soʻz boradi. Yaʼni Sobirning iqtidorli yigit boʻlganligi va oliy dargohda ishlaganligini koʻrolmagan kimsalar uning boshiga yetishadi. Bu tuhmat tavqi laʼnat boʻlib, uning hech qayerga ishga olinmasligiga va ichkilikka berilib ketishiga sabab boʻlganligi aytib oʻtiladi.

Asarda Karomatning orzu-oʻylari uning yoshiga xos boʻlgan holatda, yaʼni oq ot mingan shahzoda uni uzoq-uzoqlarga olib ketishini xohlashi holatida tasvirlangan. Hikoyadagi asosiy mazmun Karomatning kechinmalari tavsifi va uning oʻy-xayollari shaklida ifodalanadi. Bu esa oʻsmir qiz xayollaridagi begʻuborlikni otasining ichib kelib onasini doʻpposlashi buzayotganligi tasviri orqali ham ifodalanadi. Otaning ichkilikka oʻta berilganligi, onasiga va farzandlariga azob berishi Karomat ruhiyatiga shu darajada taʼsir koʻrsatadiki,

u otasining tepasiga kelib, uni qo'lidagi issiq kurak bilan kuydirmoqchi ham bo'ladi.

“Qiz dadasiga yaqin yerga bordi. Oyoq-qo'li titradi.

“Mana hozir, mana hozir menam yuziga bosaman: oyimni nohaq urgani uchun, ichavergani uchun, odamlarga kulgi bo'lganimiz uchun bosaman! “Ersirab qoldingmi“ – degani uchun ham. Mening munday otam yo'q!..” U dadasining tepasiga keldi. O'zida paydo bo'lgan shafqatsizlikdan hayron edi. Tuyqusdan dadasini yo'tal tutdi, qo'rqinchli yo'taldi. So'ng o'xchidi, boshini ko'tarmoqchi bo'ldi. Qiz qo'rqanidan ketiga tislani, tut orqasiga yashirindi” .

Lekin otasining o'z vaqtida o'rnidan turib qolishi vaziyatni yumshatib, qizning o'z fikridan tezda qaytishiga sabab bo'ladi. Demak, hikoyadagi dramatik holatlari va keskin vaziyatlar, asosan, Karomatning ichki kechinmalari tavsifi va o'y-xayollari orqali ifodalangan ekan. Shuning uchun ham hikoyada ilgari surilgan inson ma'naviyati, unda o'zgarishlar, tushkunlik, uni nazorat qila olmaslik oqibatida yuzaga kelgan muammolar ifodasida qo'l kelgan.

Yana bir ijodkor Bibi Robiya Saidovanning “Kuzgi tufli” hikoyasida insonlarda mehr-shafqat tuyg'usining o'ziga xos ifodasi haqida so'z boradi. Unda bir tufli olishga qurbi yetmagan ayolning poyabzal do'konidagi arzon tufli har kuni do'kon yaqinidagi maktabdan o'g'lini olib qaytayotganda kelib ko'rib ketishi aks ettirilgan. Asarda o'g'ilning onasining oyoq kiyimini ko'rgandagi holati va undagi o'zgarishlar quyidagicha aks ettirilgan:

“Shunda farzand nigohlarini onasining oyoqlariga qadadi. Bola onasining shuncha yillardan beri kiyilaverib orqasi ezilib ketgan, old va yonlaridagi ba'zi joylarning choklari so'kilgan poyabzalini ko'rib, goh volidasi yuziga, goh yerga tikilardi, tikilgani sayin ko'zlaridagi mung quyushardi. Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi.

Ayol o'g'lining ruhiyatida nimadir chil-chil bo'lganini onalik qalbi bilan sezdi-yu sotuvchiga minnatdorchilik bildirib, tez-tez qadamlar bilan do'konni tark etdi. Sotuvchi yuragida esa tuyg'ularni donday tortqilayotgan saf-saf chumolilar g'imirlardi.

Do'kon oldiga bugun ham farrosh bulutlar saharlab suv sepgan. Ichkarida esa sotuvchi ayol qo'lidagi kitobning sahifasini ochgan ko'yi bir nuqtadan ko'zini uzmay xayolga tolgan” .

Hikoyadagi “Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi” jumlasida undagi onasining nochorligini to'liq anglagan holatidagi o'zgarishni to'g'ri ifodalab bergan. Chunki bola onasining nochorligidan oriyati qo'zg'aydi va bir

lahzada qanday qilib ulg'ayib qolganligini o'zi ham sezmay qoladi. Keyinchalik do'konga bolaning bir o'zi keladigan va onasi har kelganda narxini so'raydigan o'sha arzon tuflining oldiga borib, narxini so'raydigan bo'ladi. Hikoya davomida sotuvchi qizning o'z tog'asi kelib, u sotuvchisi bo'lgan do'kondan qimmat tuflini olib ketib, pulini bermay ketganidan uydagi kitob javonini sotib, uning narxini amallab to'lashiga to'g'ri keladi. Ya'ni sotuvchi ham ojiz ekanligi shu voqea orqali anglashiladi. Shunday bo'lishiga qaramay, sotuvchi ayol o'sha bolaning onasiga ular narxini so'rab turadigan tuflini sovg'a qilishga qaror qiladi. Lekin shu kuni bola do'konga kelmaydi. Sotuvchi ularning uyini amallab qidirib, topib borganida ona yurolmay nogiron bo'lib qolganidan ularning qarindoshlari nogironlik uyiga topshirishganini, ular bu yerdan butunlay ketishganini, o'zining kechikkanini eshitgan sotuvchi iztirob chekkancha qoladi.

“Sotuvchi ayol hech narsani, erkakning ovozini ham, izzillab yig'layotgan yomg'ir tovushini ham eshitmadi. To'satdan ko'z oldi qorong'ulashdi, oyoqlari ixtiyoriga bo'ysunmay yerga o'tirib qoldi. Shu ko'yi loy hovuchlagan qo'llarini yerga urib-urib yig'ladi, bolani o'ylab o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, ayolni eslab kuyinib-kuyinib yig'ladi. Bu dardga chidolmagan shamol uvillar, sotuvchi ayolni turg'izmoqchi bo'lib kiyimlaridan tortqilardi. Eshik ostida esa qutidan otilib ketgan bir juft yangi tuflini yomg'ir ko'z yoshlari bilan yuwardi”...

Mazkur hikoyada ilgari surilayotgan g'oya inson orzusi va unga erishishda ko'maklashishda kechikmaslik, nochorlarga ko'mak berish, insonlarning bir-biriga mehrlil bo'lishlariga da'vat va boshqalardir. Hikoyada sotuvchining tog'asi qattiqligidan o'z jiyanini chuv tushirib ketish voqeasi nochor ayolga sotuvchining yordam berishiga to'sqinlik qilinishi sifatida ko'rsatiladi va yozuvchi asarining yetakchi qahramoni bo'lgan sotuvchi ayolni himoya qilayotgandek taassurot paydo bo'ladi. Hikoyada yana bir boy kishining o'smir qiziga og'zidan chiqqanini muhayyo qilishi, tuflini ham yangi olgan ko'yilagiga moslab olayotganligi. Aslida unga ehtiyoji yo'qligi voqeasi ham aynan nochor ayol ahvolini ko'rsatish uchun beriladi. Umuman, hikoya insonlarning bir-biriga mehrlil bo'lishi, loqayd bo'lmaslikka chorlov ma'nosida shakllantirilgan.

Xullas, hamma asarlarda bo'lgani kabi hikoyalarda ham asar tarkibidagi komponentlarning ishtiroki muhimdir. Hikoya hajman kichik bo'lganligi sababli ham uning mazmun-mohiyatini kitobxonga yetkazishda komponentlar alohida o'rin tutadi. Yuqorida tahlilga tortilgan hikoyalarda asar sarlavhasi, portret, peyzaj, interyer, badiiy detall kabi unsurlar obrazlarni xarakterlashda muallif ilgari surayotgan badiiy g'oyani ifodalab berishda mahorat bilan qo'llanilgan. Xususan, Quvondiq Siddiq, Ahmad A'zam, Abbos Said Bibi Robiya Saidova kabi ko'plab ijodkorlar ma'naviy-axloqiy muammolar talqinida hikoya janri imkoniyatlaridan, asar komponentlaridan unumli foydalana bildilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қ.Йўлдош. Ўзбек насри уфқлари. («Ёниқ сўз» китоби). – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б.35.
2. www.e-adabiyot.uz.pg.1. Собир Ўнар. Баъзан маънавиятни, адабиётни бутунлай бегона соҳа деб яшаётган раҳбарлар.
3. Муаллифлар жамоаси. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.153.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Т.: ЎАЖБНТ. 2008 – Б.332.
5. Маъсума Аҳмедова. Ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи. 2012. – Б. 46.
6. Аббос Саид. Қария. – Т.: Шарқ, 2006. – Б.350.
7. Биби Робия Саидова. Парвоз. – Т.: Адиб. 2014. – Б.21.
8. Исажон Султон. Ҳикоялар. – Т.: Шарқ, 2012. – Б. 148.
9. Latif Mahmudov. Sevgi desam. – Т.: O'qituvchi, 2005. – В.17.
10. Исажон Султон. Озод. – Т.: Шарқ, 2012. – Б. 230
11. Абдуғафур Расулов. Акслар фалсафаси. (сўнгсўз)/ Исажон Султон.Озод. – Т.: Шарқ, 2012. – Б. 425.